



ҚАРШИ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА
ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИ ВА
АДАБИЁТШУНОСЛИГИ
МАСАЛАЛАРИ**


Республика илмий-амалий конференция
материаллари

Қарши-2018



belg.
Masalan, ma'nosini
yozmosh kabi (2)

Fizikadagi elektr maydonida bo'lgani kabi til birliklari manzur
tarz ma'nosini qay darajada ifodalastuga ko'ra markaziy (yadro) va
chevara (periferik) hududlarda joylashadi. Bu halqalarini yana
davom ettirish mumkin.



Xulosa qilib aytganda, tarz ma'nesi maydon a'zolarida
markazdan chegaraga qarab susayib boradi.

Adabiyotlar:

1. Sh.Iskandarova. O'zbek tili leksičkasini mazmuniy maydon sifatida
o'rGANISH. Dok. diss. - T., 1999
2. F.Hamroyev. O'zbek tilida tarz ma'noli leksemalar. Mag. diss. -
Qarshi 2012.

"HAYRAT UL-ABROR" DOSTONINING IKKINCHI NA'TI TAHLILI

Turdiyeva Maftuna,
QarDU I-kurs magistrant

Mumtoz adabiy asarlarimiz an'anasiiga ko'ra mumtoz epik
asarlarning kirish qismi hamd, ya'ni Oliboh sifatlari madhi bayon
ctiladigan boblar, undan keyin Olibohga iltijoni ifodalovchi munojot
boblari va bu boblardan keyin Olibohning rasuli Muhammad (s.a.v)

madhiga bag'ishlanadigan na't boblari kabi boblardan tashkil topadi.

Alisher Navoiy „Xamsa“sining didaktik-falsafiy tipda yaratilgan birinchi dostoni „Hayrat ul-abror“ning kirish boblari ham bu an'anadan holi emas. Bu dostonda beshta na't mavjud bo'lib, ularning birinchisidan to to'rtinchisigacha payg'ambarimizning hayotiy faoliyatlarini tadrijiy tarzda badiiy ifodalangan. Ya'ni birinchi na'tda ul hazrat paydo bo'lgan nur bayon etilib, uning Odam Atoga ham ota, ham o'g'il mavqeida ekanligiga ishora etiladi va tavsif beriladi. Ikkinci na'tda esa payg'ambarimizning tug'ilishi, bolalik va o'smirlik chog'lari bayoni, uchinchi na'tda payg'ambarlik darajasiga erishganlari, to'rtinci na'tda esa rasuli akramning payg'ambarlik faoliyatlarini haqida, beshinchi na'tda Me'roj kechasi tasviri beriladi. Albatta, bu bayonlarda shoir payg'ambarimiz hayotlari, faoliyatlarini bosqichma-bosqich yoritib berishni maqsad qilgan emas. Mazkur na'tlarni mutolaa qilganimizda hatto bu tadrijiylikka ahamiyat qilmasligimiz ham mumkin, chunki bu voqealar shunday badiiylik libosiga o'ralganki, biz har bir baytdagi shoirning nozik ishoralari orqali katta bir voqeani, ya'ni payg'ambarimiz bilan bog'liq hodisalarni anglashimiz mumkin.

Na'tning nasriy boshlanmasi doston muqaddimasining boshqa boblari singari tashxis asosidagi poetik ifoda bilan boshlanadi. Uning mazmuni quyidagicha: Uning (payg'ambarimizning) yosh niholi – yoshligi (bolalik, o'smirlik, o'spirinlik va yigitlik davrlari) jahon gulshanini yashillikka burkadi. Qirq yilgacha bu niholdan faqat hayo va adab gullari ochildi. Undan keyin esa bu gullar nubuvvat mevasini berdi. Va bu nihol bu vaqt mobaynida shunday ulug' daraxtga aylandi. „...*dog'i shox bargin sidra shoxidin o'tkarib, ikki olam ahlining soyai rahmatiga kirgani...*“. Parchadagi manzara tushunarli va go'zal chizilgan: shu holida tushunsak, bu jahonni qoplab olgan ulkan daraxtning soyasi ham ulkan bo'ladi va shu olam abli uning soyasiga kiradi, undan bahramand bo'ladi, mohiyat e'tibori bilan yondoshsak esa parchadan payg'ambarimiz bandalarga bu olamda ham, u olamda ham faqat yaxshilikni ravo ko'rishligi tushuniladi.

Tahlil qilmoqchi bo'lganimiz ikkinchi na'tda payg'ambarimizning bolalik va o'smirlik paytalaridagi barakotli, karomatli ishlari

tavsiflanadi. Va bu ta'rif-tavsiflarda shoir, albatta, diniy manbalarga, birinchi navbatda Qur'oni Karimga tayanadi.

Mazkur na'tning qofiyasida ishtiqoq san'ati qo'llangan ikkinchi baytida shunday deyiladi:

*Ins-u malak joni-yu jononasi
Ikki jahon gavhari yakdonasi [1].*

Malak – bu farishta. Ins esa yerdagi mavjudot, yaratiqlar. Ularning hammasi ham Tangri irodasi bilan mavjuddir. Demak, ana shu jami yaratiqlarning ichida eng azizi, jononasi Muhammad (s.a.v.)dir. U ikki jahon – yer-u ko'ning yakdona gavharidir. Zero, Olloh Taoloning „...bu jahonni, u jahonni, oyni, kunni, hamma narsani uning sevukligi uchun yaratdim,” [2] degan xitobi bu baytga asos bo'ladi.

*Gavhari zotingg'a sadafsiz ne bim,
Itti sadaf, chiqti chu durri yatim.*

Baytdagi gavhar, sadaf, dur so'zлari butun va qism jihatidan mutanosib bo'lib, shoir ular vositasida o'ziga xos obrazli lavha yaratgan. Keyingi baytda o'sha mazmun davom ettiriladi:

*Durg'a sharaf bor o'zining zotidin,
Tong yo'q anga or sadaf otidin.*

Durning dur zotidan ekan katta sharaf-u, o'zining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan sadafning esa keyin ahamiyatsizligi aytiladi, ya'ni sadafning qimmati, qadri uning sadafni shakllantir-gunichadir. Garchi sadaf mingta dur paydo qilishi mumkin, lekin u bu durlarning hammasi bilan emas, faqat bittasi bilan ming sharafga erishishi mumkin. Bani bashar Odam Atoning farzandlarimiz, ammo u faqat payg'ambarga ota ekanligi bilan yuksak sharafga egadir.

Payg'ambarimizning tug'ilishi haqidagi baytlarning nasriy bayonidan parcha: „...tole' yulduzing tuqqan kechasi esa osmon o'zi unga sajda qilgan edi. Bu kufrning buyuk tog'iga shikast yetkazgan bo'lib, shunda butlar ham, butparastlar ham yerga tiz cho'kkан edilar''. Ma'lumki islom dini paydo bo'lguniga qadar keyinchalik musulmon bo'lgan xalqlarning vakillari butlardan tashqari osmon jismlariga: oyga, quyoshga, yulduzlarga ham sajda qilar edilar. Masalan, ko'chmanchi turkiy xalqlarning ko'pgina

qismi e'tiqod qilgan zardushtiylik dinida ham quyosh xudosi Mitrani buyuk va qudratli deya, mushkul vaziyatlarda undan madad so'rashgan. Navoiy ana shunday holatlarga ishora qilib, (aynan tarixiy haqiqatni bayon etmasdan turib) buyuk deb sig'inilgan osmonning o'zi rasulullohga sajda qildi-ku, deya tashxis san'atidan foydalanib fikr yuritadi. Ayni osmonning unga sajda qilishi kufrning buyuk tog'iga shikast yetkazishi jumlasida ham badiiy obrazlilik kuchli. Tog'lardan yuqoridagi osmonning yerdagi, tog'dan pastdagi insonga sajda qilishi uchun egilishi natijasida (osmon deganda undagi jismlar ham nazarda tutilyapti) tog'larga shikast yetishi tabiiy. Kufr tog'i shikastlangach, butlar va butparastlar ham tiz cho'kkан edilar.

Ma'lumki, payg'ambarimiz dunyoga kelish vaqtlarida otalari tijorat uchun Shom safarida edilar va bu safardan qaytolmay, Madinada vafot qiladilar. Rasululloh yetim holda dunyoga keladilar.

*Gar otadin yo 'q esa bahrang ne tong,
Odam o 'g'ul bo 'lsa, kim o 'lg 'ay otang?*

Bu baytning ma'nosini ikki xil tushunib tahlil qilish mumkin. Birinchi ma'nosida, chin ma'noda sen otadan bahramand bo'la olmay qolgan bo'lsang, buning taajjublanadigan yeri yo'q. Asl gavhar sadafsiz qolsa, buning qo'rqinchli yeri yo'q, deb tushunish mumkin. Ikkinci ma'nosida esa agar otadan bahramand bo'lolmay qolgan bo'lsang, buning ajablanadigan yeri yo'q, ikkinchi misradagi odam so'zining birinchi harfi bosh harf bilan ifodalansa, „Odam“ bo'lsa, *Odam o 'g'il bo 'lsa senga, kim bo 'lg 'ay otang*, ya'ni Odam Ato birinchi yaratilgan odam sifatida barcha insonlarning, jumladan, payg'ambarimizning ham otasi hisoblanadi. Ammo Muhammad (s.a.v.)ning nuri Odam Atodan ilgariroq yaratilganidan kelib chiqilsa, Odam Ato unga o'g'il mavqeida ekanligiga urg'u berilib, „*Odam o 'g'ul bo 'lsa senga, Kim o 'lg 'ay otang deb so'z o'yini qilinmoqda*.

Payg'ambarimiz o'smirlik paytlarida savdogarlik bilan shug'ullanganliklari ma'lum. Ko'p kishilar unga tijorat uchun pullarini ishonib topshirib qo'yganlar, u kishi bu pullarni yanada ko'paytirib, barakali qilib bergenlar. Tuproqqa oz urug' sochib, ko'p hosil olish mumkin bo'lganidek, shoir unga nisbatan "qora

tuproq misoli” tashbehini qo'llaydi.

„Azzama qadrah” - bu ne xulqi azim,

„Karrama vajhah” – bu ne nafsi karim.

Na't so'ngidagi rasulullohni ulug'lovchi bu ikki oyatni shoir shunday mohirlik bilan moslab keltirganki, natijada ham sari' bahri talabi qondirilgan, ham bayt na't xulosasi vazifasini o'tagan. Ya'ni „Azzama qadrah...Karrama vajhah” – qadrini ulug' qildi, yuzini mukarram qildi [3]. Duo ma'nosida ulug' qilsin, mukarram qilsin ma'nosidadir.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy mumtoz an'analarimiz asosida „Hayrat ul-abror”na'tlari misolida na'tlarning maqsad va vazifalarini mukammal tarzda yoritib bera olgan.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G.G'ulom nashriyoti. – 2006.
2. “Qur'oni Karimning o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimas”. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. w.w.islom.uz.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan“IV tom - 1985.

ОНА ТИЛИМИЗ ҲАҚИДА ЎЙЛАР

Кўзиева Муниса, ҚарДУ таълабаси

Ўзбек тилида сўзлашиб нақадар буюк баҳт. Биз эса мана шундай баҳтиёр инсонлармиз. Келажагимизга бўлган ишонч, юртимизда маънавиятга бўлган эътибордандир. Бугун кимдан сўрамайлик мустакиллигимиз ва дориломон кунларимизга шукrona айтишади. Биз келажаги буюк давлатлар қаторидамиз.

Бугун бизнинг тилимизни дунё тан олди. Жаҳон ареналарида эса Ўзбекистон деб аталувчи давлат номи қайта-қайта такрорланмоқда. Чиндан ҳам тил – миллат кўзгуси. Чунки ўз она тилини мукаммал, пухта, ҳар томонлама билган, ўз она тилида ижод килган буюк аждодларнинг меросини билиш ҳар бир кадрнинг, балки ҳар бир ўзбекнинг бурчидир. Ўз она тилини яхши билмай туриб, ўзга давлат тилларини ўрганиш, бу